

## SIYOSIY YETAKCHILIK TUSHUNCHASI VA XUSUSIYATLARI

Berdiyev Firdavs

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Xalqaro munosabatlar va Ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi  
3-kurs talabasi*

**Annotasiya:** *Ilmiy nazariy asosda yozilgan maqolada siyosiy yetakchilik tushunchasi, turlari va siyosiy yetakchining ahamiyati, uning jamiyatdagi o'рни, yetakchining yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatlari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Siyosiy yetakchilik, yetakchilik, siyosiy industriya, siyosiy yetakchilik funksiyalari, imidjmeckerlar va RRmeckerlar.*

Siyosatda kechadigan hodisalar va jarayonlarni, odatda, yetakchi shaxs nomi bilan bog'lash tizimi mavjud. Bu haqda to'g'ridan - to'g'ri aytilganda yoki aytilmaganda ham, jamiyatni (tashkilotni, guruhi) boshqarayotgan siyosiy yetakchi ro'y berayotgan voqea - hodisalar uchun bevosita mas'ul ekanligi nazarda tutiladi. Ijtimoiy hodisa sifatida yetakchilik □ inson tabiatining qirralaridan biri hisoblanadi. Yetakchilik xususiyati insoniyatning doimiy yo'ldoshi. Insonning siyosiy yetakchilik xususiyati □ oilada, barcha ijtimoiy pog'onalarda va boshqa siyosiy hodisalarda namoyon bo'lib keladi. Tarixdan ma'lumki jamiyatda siyosiy yetakchilik shaxsiy yetakchilikdan yetakchilik institutlariga, (masalan, monarx, prezidentlik instituti) va guruhiy yetakchilikka (masalan, muayyan guruhlar nomidan chiquvchi partiyalar, ijtimoiy harakatlar yetakchiligi) o'tib kelgan<sup>80</sup>.

Bugungi kunda siyosiy yetakchilarni yaratuvchi butun boshli siyosiy industriya faoliyat ko'rsatadi. Siyosiy yetakchilarni shakllantirish va ommaga namoyish qilishda imidjmeckerlar va RRmeckerlarning o'ni beqiyos hisoblanadi.

Xo'sh, siyosiy yetakchilikning mohiyati nimadan iborat? Xuddi hokimiyat, siyosat singari yetakchilik butun jamiyat miqyosida uchraydigan hodisa. Yetakchilik □ yo'l boshlovchi, rahbar ma'nosini beradi. Yetakchilik □ boshqa odamlarga ta'sir o'tkaza olish, ularni ma'lum maqsadga erishish yo'lida birlashtirish qobiliyatidir. Ana shu qatorda siyosiy etakchilik hodisasi alohida ajralib turadi.

Bu □ siyosiy yetakchilik qandaydir alohida xususiyatlarga ega ekanligi bilan emas, ijtimoiy hayotda uning yaqqolroq namoyon bo'lishi, siyosiy yetakchilar faoliyati natijalari butun jamiyat manfaatlarini, taqdiriga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi<sup>81</sup>.

Jamiyatda siyosiy yetakchilikning roli nihoyatda kuchli hisoblanadi. U xalq, jamiyat faoliyatini tinchlik, barqarorlik, rivojlanish yo'lga safarbar etishi yoki urush, nizolar, vayronagarlik domiga olib borishi mumkin. Ayniqsa o'tish davrlarida yetakchining ahamiyati juda qadrlil bo'ladi. Bunday vaqtda mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar,

<sup>80</sup> <https://genderi.org/mavzu-siyosatshunoslik-fani-predmeti-maqсад-va-vazifalari.html?page=9>

<sup>81</sup> <https://elib.buxdu.uz/>

bevosita yetakchi shaxs bilan bog'langan bo'ladi. Bu hodisalarga Turkiyaning demokratiyaga o'tishi Kamol Ota Turk yoki Hindiston Mustaqillikka erishishi Maxatma Gandi nomiga uzviy bog'lanligini misol qilib olishimiz mumkin.

Yondoshuvdagi xilma xillik siyosiy yetakchilik hodisasining ko'p qirrali va murakkabligidan dalolat beradi. Odatda siyosiy yetakchilikka doir xilma xil yondoshuvlarni bir nechta umumiy yo'nalishga birlashtiradi.

Hozirgi kunda siyosiy yetakchilikning bizga ma'lum bir nechta asosiy funksiyalari mavjud:

1. Jamiyatni jipslashtirish, ommani birlashtirish. Yetakchi o'zida va boshqa davlatlar bilan munosabatlarda milliy birlikni gavdalanitirishi va namoyish qilishi, fuqarolarni umumiy maqsadlar va qadriyatlar yo'lida birlashtirishi, Vatanga, Davlatga, xalqga xizmat qilishda o'rnak bo'lishi lozim<sup>82</sup>.

2. Eng ma'qul siyosiy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi. Yetakchilar xatolar qilishda kafolatlanmagan bo'lsa ham, ijtimoiy vazifalarni hal qilishning eng ma'qul yo'lini topa olishlik qobiliyatlari, odatda, ularning rahbarlik lavozimlarini egallashlarini oqlaydi<sup>83</sup>.

3. Ijtimoiy hakamlik va homiylik, ommani qonun buzilishlari, amaldorlarning o'zboshimchaligidan himoya qilish, tartib va qonunchilikni nazorat, rag'batlantirish va jazolash choralari bilan saqlab turish<sup>84</sup>.

4. Hokimiyat va ommaning siyosiy va hissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish.

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniye, shuningdek, saylovchilar bilan o'zaro uchrashuvlar va boshqa tadbirlar orqali prezidentlar va boshqa siyosiy rahbarlar xalq bilan bevosita aloqada bo'lishi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

5. Yangilanishning tashabbuskori bo'lish, optimizm va ijtimoiy energiyani to'plash, ommani siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar qilish. Yetakchi xalq an'analarini avaylab-asrashi, o'z vaqtida yangiliklarni ilg'ay olishi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashi, xalqda ijtimoiy idealar va g'oyalarga ishonch uyg'otishi lozim.

6. Tizimni legitimlashtirish. Bu funktsiya, asosan, totalitar jamiyat yetakchilariga xosdir. Siyosiy rejim tarixiy xalq an'analarida va demokratik tadbirlarda o'z- o'zini oqlay olmaganida, u buni xarizmatik yetakchining alohida xususiyatlaridan izlashga harakat qiladi. Bunda yetakchilarning qobiliyatlari haddan tashqari bo'rttiriladi, oz yoki ko'p darajada ilohiylashtiriladi. Masalan, Mao Tsze Dun, Saddam Husayn v.h.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dergechev V. Geopolitika. O'quv qo'llanma. M., 2000.

<sup>82</sup> <https://elib.buxdu.uz/>

<sup>83</sup> <https://elib.buxdu.uz/>

<sup>84</sup> <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280787-1.html?page=11>

2. <https://genderi.org/mavzu-siyosatshunoslik-fani-predmeti-maqсад-vavazifalari.html?page=9>
3. <https://elib.buxdu.uz/>
4. <https://fayllar.org/>
5. <https://uz.denometr.com/docs/768/index-280787-1.html?page=11>